

ФУНДАМЕНТАЛЬНЫЕ И ПРАКТИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ФУНКЦИОНАЛЬНЫХ ПОЛИМЕРОВ

материалы

Международной научно-практической
конференции

Ташкент, 17-18 марта 2023 г.

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ОЛИЙ ТАЪЛИМ,

ФАН ВА ИННОВАЦИЯЛАР ВАЗИРЛИГИ

МИРЗО УЛУҒБЕК НОМИДАГИ

ЎЗБЕКИСТОН МИЛЛИЙ УНИВЕРСИТЕТИ

Mирзо Улугбек номидаги

Ўзбекистон Миллий университети 105 ёнида

Функционал полимерларнинг фундаментал ва амалий жихатлари 2023

халқаро илмий-амалий конференция

(кимё фанлари доктори, профессор
Мухтаржан Мухамедиев таваллудининг
70 йиллигига ва илмий-педагогик фаолиятининг
50 йиллигига бағишиланади)

Тошкент, 2023 йил 17-18 март

**МИНИСТЕРСТВО ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ,
НАУКИ И ИННОВАЦИЙ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН**

**НАЦИОНАЛЬНЫЙ УНИВЕРСИТЕТ УЗБЕКИСТАНА ИМ.
МИРЗО УЛУГБЕКА**

Национальному университету

Узбекистана имени Мирзо Улугбека – 105 лет

международная научно-практическая
конференция

Фундаментальные и практические аспекты функциональных полимеров

*(посвящается 70-летию со дня рождения доктора
химических наук, профессора Мухтаржана Мухамедиева и
50-летию его научной и педагогической деятельности)*

Ташкент
17-18 марта 2023 года

FP-86. BUTILMETAKRILATNING STIROL BILAN SOPOLIMERI SEDIMENTATSIYASI VA QOVUSHQOQLIGINI O'RGANISH

Xudoynazarova Gulbahor Akiyevna, dotsent

Ganiyev Baxtiyor Shukurullayevich, assistent

Xoliqova Gulyayra Qo`ldoshevna, doktorant

Aslonova Ferangiz Sadilloyevna, magistrant

Rashidova Rushana O`tkir qizi, talaba

Buxoro davlat universiteti

I Butilmetakrilatning stirol bilan sopolimerining eritmadiagi gidrodinamik xossalari, konformatsion tavsiflarini va molekulasi zanjirining egiluvchanligini o'rganish katta qiziqish uyg'otadi va bu maqsadda ushbu ishda turli fraksiyalarda olingan sopolimerlarni sedimentatsiya va qovushqoqliglarini o'rganish bo'yicha olingan natijalar ilmiy tahlili keltirilgan.

Kalit so'zlar: stirol, butilmetakrilat, monomer, sedimentatsiya, zichlik, piknometr, polimer, qovushqoqlik.

Jahon miqyosida turli tarmoqlarda, jumladan, mashinasozlik, yengil sanoat, tibbiyot va boshqa sohalarda polimer materiallar ishlatalish hajmining kengayishi va oshishi sababli sun'iy polimerlar ishlab chiqarishga talab ortmoqda [1-3, 5]. Shu sababli kimyoviy barkaror, mexanik pishiq, yaxshi ion almashinish va tibbiy-biologik xossalarga ega bo`lgan polimer va polimer materiallarini olishda: sanoat miqyosida ishlab chiqariladigan xomashyolardan foydalanish, mahsulot olish texnologiyasining soddaligiga, olingan mahsulotlarning kompleks xossalarga ega bo`lishi va ishlatilish sohalarining kengligiga alohida e'tibor qaratish muhim ahamiyatga ega.

Stirol va akril monomerlar asosida olingan sopolimerlarni molekulyar massaviy taqsimlanishini o'rganish nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham ahamiyatga egadir.

Chiziqsimon polimerlarni eritmalari konsetratsiyasini sedimentatsiya doimisiiga bog'liqligidan molekulyar massasi aniqlangan bo`lib, ishda faqat egiluvchan polistirol to'g'risida ma'lumot keltirilgan. Shuningdek, stirol bilan butilmetakrilat monomerlarning sopolimerlarini molekulyar massaviy taqsimlanishi to'g'risida adabiyotlarda ma'lumotlar


juda oz tavsiflangan.

Shuning uchun ishda namuna sifatida butilmekrilatning stirol bilan sopolimerining eritmadiagi gidrodinamik xossalariini, konformatsion tavsiflarini va molekulasi zanjirining egiluvchanligini o'rganish katta qiziqish uyg'otadi va bu maqsadda polimerlarni sedimentatsiya va qovushqoqlikni o'rganish bo'yicha olingan natijalarni ilmiy tahlilini keltirdik.

Sedimentatsion tajribalar MOM 3180 (Vengriya) rusumli analitik ultratsentrifugada bajarildi. Uning aylanish tezligi 45000 ayl/min. ga teng. Tajribalar bir sektorli (poliamid) kyuveta 298 K haroratda o'tkazildi. Tavsifiy qovushqoqligi $[\eta] = 0,32$ bo'lgan butilmekrilatning stirol bilan sopolimer namunasi uchun sedimentatsiya koefitsientlarining S (c) konsentratsion bog'liqligi aniqlandi. Polimer sedimentatsiyaga uchrashi uchun zichligi erituvchidan katta bo'lishi kerak. Polimerning zichligini o'lhash uchun piknometr usuli qo'llanildi. Bu eritma konsentratsiyasini o'zgarishi bilan zichlikni o'zgarishiga asoslangan usuldir.

Tekshirilayotgan sopolimerning dioksandagi sezuvchanlik faktori $1 - vp = 0,2035 \text{ sm}^3 / \text{g}$, sopolimerning solishtirma hajmi $v = 0,769 \text{ sm}^3 / \text{g}$ ga teng.

Sopolimerning "grafik" fraksiyalari bevosita sedimentogrammadan – 0,2; 0,14; 0,11; 0,09 g/dl eritma konsetratsiyalari uchun sektorial suyuqlanishni hisobga olgan holda va diffuziyalanish ta'sirini $q(D)$ ni $t^{-1,0}$ ga ekstrapolyasiya qilib chegirib tashlanib, har bitta konsentratsiya uchun sedimentatsiya taqsimlanishini integral egri chizig'i orqali olindi (1-rasm).



1-рasm. Butilmekrilat va stirol sopolimerini dioksandagi sedimentatsiya koefitsientlari bo'yicha integral taqsimlanishi

"Grafik" fraksiyalarga mos keladigan sedimentatsiya

кoeffitsentlarining $\left(\frac{1}{S}\right)$ konsentratsiyadagi bog'liqligi aniqlandi. Ushbu

$\left(\frac{1}{S} \sim 0\right)$ bog'liqlik orqali "grafik" fraksiyalarning sedimentatsiya konstantasi S_0 va konsentratsion ko'rsatgichlari K_s hisoblandi. (1-jadval)

1-jadval Buttilmetakrilat va stirol sopolimerining "grafik" fraksiyalarini uchun ba'zi bir gidrodinamik va molekulyar-massaviy ko'rsatgichlari

Ko'rsatgichlar	Fraksiyalar								
	1	2	3	4	5	6	7	8	9
$S_0 \cdot 10^{-13}$	2,2 6	1,9 4	1,7 4	1,7 6	1,6 1	1,5 0	1,4 1	1,2 0	0,9 0
$K_s; \text{sm}^3/\text{g}$	186	126	91, 9	74, 2	70, 1	65, 0	60, 0	54, 0	49, 0
$M_{\text{ks}}, 10^3$	177	114	84, 5	71, 0	65, 4	57, 0	50, 0	37, 2	23, 0

Olingan kattaliklar qiymatidan foydalanib termodinamik "yaxshi" erituvchilarda qiyin egiluvchan polimerlar uchun xos bo'lgan invariantlik ko'rsatgichni qo'llab, sopolimer namunasini uchun

$$M_{KS} = \left(\frac{N_A}{\beta_s} \right)^{\frac{3}{2}} [S]^{\frac{3}{2}} K_s^{\frac{1}{2}}$$

formula bo'yicha sopolimerning "grafik"

fraksiyalarining molekulyar massalari M_{ks} aniqlandi. Molekulyar massalari aniq bo'lgan "grafik" fraksiyalar asosida molekulyar massaviy taqsimlanishni (MMT) ifodalovchi chiziq tuzildi (2-rasm) [4,6].


MMT chizmasi orqali o'rtachalanish darajasi turlicha bo'lgan molekulyar massalar va taqsimlanish kengligini xarakterlovchi ko'rsatgichlar topildi. Ular mos ravishda quyidagilarga teng bo'ldi:

$$M_z = 111 \cdot 10^3; \quad M_w = 65,4 \cdot 10^3 \quad \text{va} \quad \frac{M_z}{M_w} = 1,7$$


1 - jadvalda keltirilgan ma'lumotlar asosida qo'shlogarifmik mashtabda sedimentatsiya konstantasining molekulyar massa bilan bog'liqligi aniqlandi. Bu bog'liqliknin ma'lum bo'lgan $S_0 = K_s M_z^{1/2}$ Mark-Kun-Xauvnik tenglamasi bilan ifodalash mumkin (3-rasm).

$$S_0 = 13 \cdot 10^{-15} \cdot M^{0,4}$$

Ushbu ifodadagi M ning daraja ko'rsatgichining 0,5 dan kichik bo'lishi dioksanni tekshirilayotgan sopolimerga nisbatan termodynamik "yaxshi" erituvchi ekanligidan, ya'ni erituvchi bilan sopolimer makromolekulasi orasida sezilarli darajada o'zaro ta'sirlanish borligidan, ya'ni, butilmekatrilit va stirol sopolimeri dioksanda hajmiy o'ram holda bo'lishligidan dalolat beradi. Sopolimerning dioksandagi konformatsiyasi faqatgina kimyoviy tuzilishi bilan emas, balki erituvchi bilan ta'sirlanishi natijasida ham shakllanadi.



2-rasm. Butilmekatrilit va stirol sopolimeri namunasi uchun molekulyar-massaviy taqsimlanishining integral egrini chizig'i



3 – rasm. Butilmekatrilit va stirol sopolimerining «grafik» fraksiyalari uchun dioksandagi sedimentatsiya konstantasi $lg C$ ni molekulyar massa $lg M$ ga bog'liqligi

Tekshirilgan butilmekatrilit va stirol sopolimerning molekulyar massaviy taqsimlanish egrisi unimodalligi sopolimerlanish jarayonining radikalli mexanizmdan chetlanish yo'qligini ko'rsatadi.

1. Mahkamov M.A. Tibbiy biologik polimerlar. // (Ma'ruzalar matni). Toshkent. 2009.
2. Кусакин, Е.В., et al. "Современные полимерные материалы в сельскохозяйственном машиностроении." Современные достижения селекции растений–производству: материалы Национальной научно-практической конференции, 15 июля 2021 года, г. Ижевск. 2021. –С. 56
3. Ющенко, Д.А., and Е.М. Кузнецова. "Перспективы применения полимерных композиционных материалов." Механики XXI веку 14 (2015): 194-198.
4. Khudoyazarova G.A., Mavlonov B.A., G'aniyev B.Sh. Guidelines for independent study of high molecular weight chemistry. Methodological manual. Tashkent. "Kamalak" 2015. 70 p
5. Avezov X. T. and dr. Environmental problems in the application of polymeric materials in the food industry and their solutions // Young scientist. - 2020. - №. 44. - С. 386-388.
6. Б.Ш. Ганиев, Г.А. Худойназарова, Б.А. Мавланов, Ш.Қ. Идикурбонов. Изучение кинетики сополимеризации

гетероциклических мет- акрилатов со стиролом. Материалы международной научной конференции «Инновационные решения инженерно-технологических проблем современного производства» 1 ТОМ. 14-16 ноябр. Бухара-2019. С. 38-41

Tashkent - 2023

*PhD (кимё фанлари), кичик илмий ходим, ПКФИ;
Атаканов Абдумутолиб Абдулатто ўғли
т.ф.д., проф, лаборатория мудири, ПКФИ.*

FP-77. СУСПЕНЗИОН УСУЛДА НАНОЦЕЛЛЮЛОЗАДАН НАТРИЙКАРБОКСИМЕТИЛ ЦЕЛЛЮЛОЗА ОЛИШ ВА ХОССАЛАРИНИ ТАДҚИҚ ҚИЛИШ 324

*Мамадиёров Бурхон Нормуродович, кичик илмий ходим
Атаканов Абдумутолиб Абдулатто ўғли, техника фанлари
доктори, Профессор*

FP-78. КИЗИЛМИЯ ИЛДИЗИ ЦЕЛЛЮЛОЗАСИ ВА УНИНГ МОДИФИКАЦИЯЛАНГАН ШАКЛЛАРИНИНГ ТУЗИЛИШИ ВА ХОССАЛАРИНИ ТАДҚИҚ ҚИЛИШ 327
Эргашев Дониёр Жабборович, стажёр-тадқиқотчи;

*Сайдмуҳаммадова Муҳлиса Қодиржон қизи, кичик илмий ходим;
Мамадиёров Бурхон Нормуродович, кичик илмий ходим;
Аҳмадов Рустам Камол ўғли, магистрант;
Атаканов Абдумутолиб Абдулатто ўғли, т.ф.д., проф.,
лаборатория мудири*

FP-79. ИККИЛАМЧИ ПОЛИЭТИЛЕНТЕРЕФТАЛАТ АСОСИДА ВОСК ОЛИШ ШАРОИТИНИ ЎРГАНИШ 332

Холмирзаева Л.Ш, Жураев А.Б.

FP-80. НАФТАЛИН АСОСИДА ФТАЛ КИСЛОТА СИНТЕЗИ 336
Кодиров Орифжон Шарипович

Ҳалимова Ойгул Бозорқуловна

Каримова Зилола Маҳмудовна

FP-81. БЕНЗОЛ ТЕТРАКАРБОН КИСЛОТА СИНТЕЗИ 340
Кодиров Орифжон Шарипович

Ҳалимова Ойгул Бозорқуловна

Каримова Зилола Маҳмудовна

FP-82. ПРИМЕНЕНИЕ ГУАНИДИНА В СОЗДАНИИ НОВЫХ БИОЛОГИЧЕСКИ АКТИВНЫХ МАКРОМОЛЕКУЛЯРНЫХ СИСТЕМ 344

O.P. Ахмедов, Ш.А. Шомуротов, А.С. Тураев

FP-83. BIODEGRADABLE POLYMER MATERIALS BASED ON PVA-STARCH 348

Nurzhanova Anel Toktarbayevna, Urkimbayeva Perizat Ibragimovna

FP-84. MODIFIKATSIALANGAN SHOLI QOBIG'INING Cu²⁺ IONLARINI YUTISH IMKONYATLARI 354

Yarmanov Sherimmat Xalillayevich, Botirov Sunnatjon Xudoyberdi

o'g'li, Bekchanov Davron Jumazarovich

FP-85. ПОЛИАКРИЛАМИД В КАЧЕСТВЕ БАЗОВОГО ОБЪЕКТА ДЛЯ ПОЛУЧЕНИЯ НАНОВОЛОКОН 357

Кудышкин В.О. д.х.н., проф., Бозоров Н.И. д.х.н., Ашуров Н.Ш.

*к.ф-м.н., Жумартова У.У. PhD докторант, Рашидова С.Ш. д.х.н.,
проф., академик АН РУЗ*

FP-86. BUTILMETAKRILATNING STIROL BILAN SOPOLIMERI SEDIMENTATSİYASI VA QOVUSHQOQLIGINI O'RGANISH 361